ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY TAFAKKURINI TRANSFORMATSIYA QILISH

Rasulova Umidaxon Po’latjon qizi
Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya universiteti
Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti
Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi talabasi
umidaxon.rasulova@email.com

Annotatsiya. Ushbu tezis raqamlashtirish asrida yoshlarning intellektual salohiyati va media savodxonligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarni konseptual tahlil etishga bag'ishlanadi. Raqamli platformalar, LMS tizimlari va virtual debat darslarining o'quvchilar kognitiv faolligiga bo'lgan ijobiy ta'siri sifatli va miqdoriy metodlar integratsiyasida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, kognitiv yondashuv, media savodxonlik, feyk axborot, onlayn platformalar, intellektual immunitet, lingvodidaktika.

Raqamli texnologiyalar asrida maktab o'quvchilarhi hayotining ajralmas qismiga aylangan internet makoni ularning fikrlash doirasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotning haddan tashqari haddan ziyod ko'pligi (information overload) yoshlarda ma'lumotlarni yuzaki qabul qilish va "klipcha fikrlash" (clip thinking) kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday murakkab sharoitda ta'lim tizimi va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi oldida o'quvchilarda feyk (yolg'on) ma'lumotlarni haqiqiysidan ajratish hamda axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ya'ni tanqidiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turibdi. Tanqidiy fikrlash kognitiv jarayon sifatida o'quvchiga virtual makonda lisoniy manipulyatsiyalarni oson aniqlash va manbalarni verifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlarimiz doirasida Padlet, Kahoot va Google Classroom platformalarining interfaol modullaridan ingliz tili darslarida

unumli foydalanildi. 80 nafar o'rta maktab o'quvchilari ishtirok etgan ikki bosqichli tadqiqot natijalariga ko'ra, dars ssenariylariga virtual bahslar va raqamli kognitiv topshiriqlarning integratsiya qilinishi o'quvchilarning intellektual faolligini sezilarli darajada o'stirdi. Dastlab internet materiallarining birlamchi manbasini tekshirish odatiga ega bo'lgan o'quvchilar atigi 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, pedagogik aralashuvlardan so'ng bu ko'rsatkich 52 foizga yetdi. Matndagi yashirin manipulyatsiyalar va lingvistik stereotiplarni aniqlash qobiliyati esa 2.4 barobarga oshdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, raqamli ta'lim vositalari to'g'ri pedagogik strategiya asosida yo'naltirilsa, o'quvchilarda axborot xavfsizligi immunitetini va tahliliy salohiyatni kuchaytiruvchi drayver vazifasini bajaradi. Kelgusida elektron o'quv adabiyotlari mazmuniga Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlariga mos keluvchi kognitiv-tahliliy mashqlarni ko'proq kiritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Siemens, G. Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005. – P. 3-10.

2. Buckingham, D. The Media Education Manifesto. Polity Press, 2019. – P. 40-55.

3. Saidov, M. S. Raqamli pedagogika asoslari. Ta'lim texnologiyalari nashriyoti, 2022. – B. 75-90.